



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR NUTQ VA TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Kamalova Nilufar Xamroevna

Samarqand Kimyo xalqaro universiteti Logopediya yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar nutqining normal shakllanishi, uning neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Nutq markazlarining rivojlanishi, eshitish va artikulyatsion analizatorlarning yetukligi bolalar nutqining to‘laqonli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi asoslanadi. Nutqning ontogenez jarayoni bosqichma-bosqich tavsiflanib, fonematik idrok, leksik-grammatik tuzilish va bog‘langan nutqning shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda uchraydigan klinik-pedagogik ko‘rinishlar, ularning nevrologik va psixologik belgilariga tavsif beriladi. Nutq buzilishlarining kelib chiqish sabablari, markaziy asab tizimi faoliyati bilan bog‘liqligi hamda korreksion-logopedik ishlarning ahamiyati ochib beriladi. Bolalarni savod o‘rganishga tayyorlashda nutqiy, kognitiv va psixologik jarayonlarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar nutqi, nutq rivojlanishi, fonematik idrok, nutq buzilishlari, markaziy asab tizimi, logopedik yordam, ontogenez, motor alaliya, bog‘langan nutq, savod o‘rganishga tayyorlash.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING SPEECH AND THINKING IN CHILDREN WITH INSUFFICIENT SPEECH DEVELOPMENT

Kamalova Nilufar Xamroevna — Master’s student in Speech Therapy (Logopedics),
Samarkand International Kimyo University.

Annotation

This article discusses the normal formation of children's speech, its inextricable connection with neurophysiological, psychological and social factors. It is based on the fact that the development of speech centers, the maturity of auditory and articulatory analyzers play a decisive role in the full development of children's speech. The ontogenesis of speech is described step by step, and the features of phonemic perception, lexical-grammatical structure and the formation of connected speech are analyzed. Also, clinical and pedagogical manifestations of children with incomplete speech development, their neurological and psychological symptoms are described. The causes of speech disorders, their connection with the activity of the central nervous system, and the importance of corrective speech therapy are revealed. Important areas of development of speech, cognitive and psychological processes in preparing children for literacy are indicated.

Keywords: children's speech, speech development, phonemic perception, speech disorders, central nervous system, speech therapy, ontogenesis, motor alalia, connected speech, preparation for literacy learning.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧИ И МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ С НЕДОСТАТОЧНЫМ РАЗВИТИЕМ РЕЧИ

Камалова Нилуфар Хамроевна — магистрант направления «Логопедия», Самаркандский
международный университет Кимё

Аннотация

В данной статье рассматривается нормальное формирование детской речи, ее

неразрывная связь с нейрофизиологическими, психологическими и социальными факторами. Она основана на том, что развитие речевых центров, зрелость слуховых и артикуляционных анализаторов играют решающую роль в полноценном развитии детской речи. Пошагово описан онтогенез речи, проанализированы особенности фонемного восприятия, лексико-грамматической структуры и формирования связной речи. Также описаны клинико-педагогические проявления у детей с неполным развитием речи, их неврологические и психологические симптомы. Выявлены причины речевых расстройств, их связь с деятельностью центральной нервной системы и важность коррективной логопедической терапии. Указаны важные направления развития речи, познавательных и психологических процессов в подготовке детей к чтению.

Ключевые слова: детская речь, развитие речи, фонемное восприятие, речевые расстройства, центральная нервная система, логопедия, онтогенез, моторный алалия, связная речь, подготовка к обучению чтению.

Bolalar nutqi maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stlog'idagi nutq markazlari to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning sezgi organlari ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa, nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlanishiga juda muhimdir. Bolalar bilan muloqotda bo'lgan har bir kishiga ma'lumki, hatto bir yashar bola ham ayta oladigan so'zlariga nisbatan ko'proq so'zlarni tushunadi Ammo bolada talaffuz va idrok yaxshi bo'lishi bilan nutqi to'liq shakllanmaydi. Bola nutqining barcha tomonlari to'liq shakllanishi maktabgacha va maktab yoshi davomida intensiv, jadal rivojlanadi. O'ta muhim bo'lgan nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini rivojlantirish muammosini yoritish va asoslashga ilmiy-nazariy yondashuvlar dastlabki nazariy pozitsiyalar, falsafa pozitsiyasi, umumiy va maxsus fanlar, pedagogika va psixologiyaning integratsiyasiga asoslanadi. Bolalar nutqini o'rganuvchi tadqiqotchi A.P.Gvozdevning bergan ma'lumotlariga kura: "Nutqdagi tovushlarni egallash jarayoni, ham eshitish, ham talaffuz etishning birgalikdagi faoliyatiga bog'liqdir. Eshitish qobiliyatini rivojlanishi natijasida bola nutqdan tashqari va nutqdagi tovushlarni eshitib o'rganib boradi, aniq eshitish orqali tasavvur qilish bolaning talaffuzi uchun zamin hozirlaydi. Lekin ularning nutqda hosil bo'lishi uchun yana artikulyasion apparat harakatchanligi o'sgan sari hosil bo'ladi.

Bola nutqining o'sishi nafaqat idrok va talaffuzga, balki bola o'z nutqida va atrofdagilar nutqida so'zning tovush tarkibini ajrata bilishga bog'liq. Psixolingvistlar tomonidan shu narsa aniqlandiki, idrok nutqdan tashqari tovushlarni va nutqdagi tovushlarni ajratish uchun xizmat qiladi. Inson nutqidagi tovushlar ma'no anglatadi. Ma'no anglatuvchi nutqdagi tovush-fonema deb ataladi. Fonematik idrok bu- nutqdagi ma'no anglatuvchi tovush, fonemani eshitish, uni boshqa tovushdan ajrata olish, sifatini aniqlash (unli, undosh, jarangli, jarangsiz, til oldi, til orqa, sirg'aluvchi kabilar) qobiliyatidir. Agarda bolaning fonematik eshitishi yaxshi rivojlanmasa, u so'z ma'nosini to'g'ri idrok eta olmaydi, chunki o'xshash tovushlarni almashtirib yuboradi, masalan boy-poy, tul-kul, bosh-tosh bo'lib eshitiladi. Fonematik eshituvning rivojlanmasligi natijasida nutqning rivojlanishida turli nutqiy nuqsonlar kuzatiladi. Fonematik idrok asta-sekin talaffuzning shakllanishi sari takomillashib boradi.

Nutqi biologik nuqtai nazardan olib qaraganda markaziy asab tizimining funksiyasi va qabul qilishi natijasida yuzaga keladi. Biroq nutq muhim ijtimoiy funksiyalarda yuzaga keladi. Shuning uchun uni rivojlanishida biologik shart-sharoit yetarli emas, u faqat bolaning kattalar bilan muloqotida vujudga keladi. Shuning uchun ham bolaning unga yaqin bo'lgan kattalar (onasi) bilan muloqotining ahamiyati katta. Bolaning ehtiyoji hayotidagi atrofidagi odamlarning o'zaro muloqoti ta'sirida vujudga keladi. U bola hayotining birinchi, ikkinchi oyida yangi taassurotlarida va dastlabki organik ehtiyojlarida vujudga keladi.

Muloqot vositalari orasida ekspertiv mimika, predmet faoliyati va nutqiy muloqotlarga ajratiladi. Bola hayotining birinchi yillarida qachonki, u kattalar bilan faoliyatli vositalar yordamida muloqotga kirsa buni biz doveralgacha deb ataymiz. Aynan mana shu davrda bola inson tovushini, fizikaviy obyektlar tovushlari bilan taqqoslaydi, kuchlari bir-biriga tegishli, uzoqligi, balandligi va tarkibini ajratadilar.

Nutq buzilishi, nutqiy muammolarning cheklanmaganligi bola shaxsining shaklanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning xarakteriga salbiy fazilatlarini rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin.

Nutqning mexanizmi ishning faoliyatiga bog'liq. Miya faoliyatining har bir bo'limi o'ziga xos nutq faoliyatining xarakter boyligiga ega. Klinik tajriba shuni ko'rsatadiki, bosh miya po'stlog'ining salgina shikastlanish ham nutq faoliyaning buzilishiga sababchi bo'ladi. Nutqning u yoki bu darajada buzilishiga miyaning turli joylardagi jarohatlari ham ta'sir qiladi.

Nutq-xarakter analizatori bosh miya qobig'ining chap peshona qismida joylashgan bo'lib, Broka markazi deb ataladi. Bosh miya qobig'ini chap chekka qismida Verniki markazi joylashgan. Nutqni tushunishda bosh miya qobig'ining orqa bo'lagi katta rol o'ynaydi. Bu bosh miyaning ko'ruv markazi bo'lib, yozma nutqi shakllanishiga xizmat qiladi. Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orqali amalga oshiriladi, bunda bosh miya faoliyati asoiy rol o'ynaydi. Bolaning barcha verbal rivojlanishi negizida nutqning kommunikativ funksiyasi yotadi. Bu funksiyaning o'z vaqtida yuzaga kelishi, bolaning xulq-atvorini yuqori darajada tushunishni egallashga bog'liqdir. Nutq egallashda uchta asosiy muloqot vositasidan foydalaniladi. Birinchi bosqichida bola atrofdagi kattalar nutqini tushunmaydi. Ikkinchi bosqichda nutqning kelib chiqishi davrida bola kattalarni tushunadi va o'zini birinchi so'zlarini aytishga boshlaydi. Nutqning ikkinchi funksiyasi xususiyati tafakkur vositalari bo'lib, bunday ba'zi hollarda nutqning ruhiy faoliyati faqatgina muloqot vositasi emas, balki umumlashtirishga ham xizmat qiladi. Predmetni umumlashtirish abstrakt qurollarni tashkil qiladi. Nutqning kommunikativ va umumlashtiruvchi funksiyalari tor ma'nodagi birlikni tashkil qiladi. Nutq yordamida bola nafaqat yangi axborot oladi, balki uni o'zlashtiradi. Shu bilan birga nutq oliy psixik funksiyalarni, vositalarni muntazam tartibga solib turadi. Normada tartibga solingan davrning oxirida vujudga keladi va bolaning maktabga borishida katta ahamiyat kasb etadi. Bola o'z nutqini kattalar nutqiga taqlid qilish asosida olib boradi.

Bola aqliy operatsiyalarni muntazam bajarib borsa, keyinchalik qiyinchilikka duch keladi, o'z xatolarini anglab yetmaydi, so'nggi maqsadalarini "yo'qotadi", yengilib, chetlashadi. Bu faoliyat ayniqsa bola nutqining rivojlanmasligi bilan bog'liq. Bunda korreksion logopedik ish olib borish kerak bo'ladi.

Nutqi to'liq rivojlanmaganlik, turli noqulay ichki sharoitning ta'sir etishidan (tug'ish paytidagi travmalar, asfiksiya), yana bola nutqi rivojlanishining birinchi davrida namoyon bo'ladi. Bosh miyaning zararlanishi oqibatida nutq kamchiliklari kelib chiqadi. Xarakterning anomal rivojlanishi davrida miyaning barcha qismlari shikastlanishi keyingi vaqtlarda isbotlangan. Ayniqsa bolaning paydo bo'lish davrida miyaning og'ir shikastlanishi nutqning rivojlanishiga turli ta'sir ko'rsatadi. Tahmin qilinishicha xomilaning 3-4 oyligida miya to'qimalaridagi shikastlanish bola nutqiy rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Qaysi asab tizimlarining u yoki bu bo'limlariga zararli omillar ta'sir etsa, ko'pincha tayanch-harakat, sensor-nutqiy va aqliy funksiyalarga zarar etkazadi. Homiladorlik paytidagi noqulay sharoitlar miyaning barcha bo'limlarida, miyaning ayrim qismlaridagi og'ir shikastlanishlari bolada og'ir nuqsonlarni vujudga keltiradi. Masalan, aqli zaiflik. Motor alaliya bilan birga kelishi va hokazo. Sabablar orasida miyaning zararlanishi. Onaning homiladorlik paytidagi yuqumli va endokrin kasalliklar, toksikozlar, tug'ruq vaqtida travma, asfiksiya, qonning rezus faktorga mos kelmasligi, markaziy nerv sistemasining kasalliklari va bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya jarohatlari kiradi. Ayni paytda ko'rsatilishicha, onaning homiladorlik vaqtida va nikotin iste'mol qilishi bolaning ruhiy va fiziologik rivojlanishiga, nutqining to'liq rivojlanmaganligiga olib kelishi mumkin. Alkogol ta'sirida homila to'liq rivojlanmaydi va chala tug'iladi. Unda jismoniy va ruhiy kamchiliklar kuzatiladi. Tanadagi kamchiliklar, bo'yi va og'irligidagi kamchiliklar. Ko'krak qafasi deformatsiyasi, bosh suyagining gidrosefal yoki mikrosefal, bo'yinning kattaligi kuzatiladi. Bu bolalardagi nutqning rivojlanmaganligi. Tayanch harakat apparatining buzilishiga, qo'zg'aluvchanlikka, aqliy qobiliyatini turg'un pasayishiga olib keladi. Bu bolalarni esa aniqlash, ularni ichkilikboz ota-onalaridan ajratib qo'yish kerak, to'g'ri tashkil etilgan tibbiy, tarbiyaviy va

logopedik ishlar bolalarni nutqiy va aqliy rivojlanishida muhim rol egallaydi. Bunday hollarda bola miyasining nutqiy zonasi bo'limlarida zararli holatlar kelib chiqadi, bunda nutqning yo'qotilishi, afaziya kuzatiladi.

Nutqi to'liq rivojlanmaganlikning etiologiya va patogenezi xilma-xil nutqi to'liq rivojlanmaganlik klinik nuqtai nazardan olib qaraganda markaziy asab tizimining organik zararlanishi bilan bog'liq.

A.R.Luriya nutqni har tomonlama o'rganib shunday xulosaga keldiki, impressiv nutq bilan ekspressiv nutq o'zaro bog'liq. Nutqni eshitishni buzilishi albatta talaffuzga ta'sir ko'rsatadi va nutq sistemasining nafaqat fonetik-fonematik komponenti, balki leksik va grammatik komponentlarining shakllanishiga ham ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi va aksincha, artikulyar jarayonlarning buzilishi nutqiy idrokka va impressiv, ya'ni so'z mazmunini tushunish qobiliyatiga ta'sir etadi. L.S.Vigotskiy fikricha "Nutqni tushunish tovush signali asosidagi reaksiyadan tashqari murakkab jarayondir".

Nutqni idrok qilish jarayoni G.L.Rozengrad Pupko tomonidan ham har tomonlama o'rganilgan. Uning ta'kidlashicha, bolaning nutqini idrok qilish, tushunish qobiliyati ko'ruv idroki va predmetlarga ko'z tashlash, ularning nomlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

G.L.Rozengrad Pupko nutqiy rivojlanishida ikki bosqichni: tayyorlov (ikki yoshga qadar) va nutqni mustaqil bayon etish bosqichlarini ajaratadi.

A.N.Leontev bolalarda nutq shakllanishining to'rt bosqichini aniqlagan:

1 - bosqich – tayyorlov; bir yoshga qadar

2 - bosqich – maktabgacha yosh davriga qadar bo'lgan bosqich tilni dastlabki egallash bosqichi; uch yoshga qadar

3 - bosqich – maktabgacha yosh bosqichi; yetti yoshga qadar

4 chi bosqich – maktab bosqichi.

Bolalarning nutqiy rivojlanishning qonuniyatlarini bilish nutq nuqsonlarini to'g'ri tashxis etish uchun muhimdir. "Uch yoshli bolani tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarini bartaraf etish uchun logopedga yo'llash kerak emas, chunki normal nutqiy rivojlanishda ham bu yoshdagi bolaga ayrim tovshularni xato talaffuz qilish odatiy xolat" hisoblanadi. Ontogenez jarayonida bolalar nutqi rivojlanishning qonuniyatlarini bilish, bolalar bilan korreksion tarbiyaviy ishlarni barchasini to'g'ri tashkil etish uchun muhimdir.

Nutqning rivojlanish jarayoni hali tugalanmagan yoshda (2 yosh-u 6 oy – 5 yosh) mutaxassis bola nutqining qaysi jihatlari shakllanganligini va nimalar endi rivojlanayotganligini, qaysi holatlar yaqin vaqt davomida umuman kuzatilmasligining chegerasini o'rnatib olishi kerak. Kichik yoshdagi bolaning nutqiy faoliyatini bunday tahlil qilish va baholashni normal nutqiy rivojlanishda bolalar nutqniig shakllanishi haqidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lmay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Nutqning rivojlanishni lingvistik jihatdan chizg'ichli shaklda quyidagicha tasvirlash mumkin: qiyqiriqlar – gugulash, bo'g'inlarni talaffuz qilish, so'zlarni talaffuz qilish, so'z birikmalari, gap, bog'langan nutq.

- Qiyqiriqlar o'z o'zidan yuz beradi- tug'ilgandan 2 oylikka qadar;

- Gugulash o'z o'zidan yuz bermaydi, uning namoyon bo'lishi bolaning kattalar bilan muloqati bilan bog'liqdir – 2 oydan 5 – 7 oygacha;

- Bo'g'inlarni talaffuz qilish uning davomiyligi 16 – 20 haftalikdan 30 haftallikka qadar (4 – 7,5 oylik);

- So'zlarni talaffuz qilish – so'zlardan foydalanish bo'g'inlarni talaffuz qilish bilan hamkorlikda davom etadi. 11,12 oylik;

- So'z birikmalarining talaffuz qilinishi ikki va uch bo'g'inli so'zlarni o'zlashtirib olgach yuz beradi 1 yoyoshu 7 oylikdan 1 yoshu 9 oylikka qadar;

- Gaplarni qo'llash ko'rgazmali ayni vaziyat sharoitida 2 yoshdan, 2 yoshu 6 oylikdan – qaerda, qaerga, 3 yoshdan – nimaga qachon savollarini bera boshlaydi;

• Bogʻlangan nutq -3 yoshdan boshlab qisqa hikoyalarni hikoya qilish, sheʼrlar, ashulalar yodlash orqali namoyon boʻladi, asta – sekinlik bilan rasmlar asosida mustaqil ravishda hikoyalar tuzishga oʻtiladi, 4 yoshdan boshlab oʻyinchoqlar tasvirlanadi, 5 yoshdan kontekst nutq elementlarini egallaydi.

5 yoshdagi bolalar nutqining tuzilish komponentlariga chuqurroq toʻxtalib oʻtamiz.

Iborali nutq. Sodda keng tarqalgan gaplar, murakkab bogʻliqlikdagi 10 ta soʻzdan iborat boʻlgan gaplarni qoʻllay oladilar.

Nutqni tushunish. Oʻzlariga qaratilgan nutqning maʼnosini tushunadilar, atrofdagilar nutqni eʼtibor bilan tinglay oladilar.

Lugʻat boyligi. Hajmi 3000 gacha boʻlgan soʻz umulashtiruvchi tushunchalar (idish – tovoqlar, qiyim, mebel kabi) hosil boʻladi. Sifatni predmetlarning belgilari va sifatini koʻp qoʻllaydilar: otlangan sifatlar bola nutqida hosil boʻladi.

Nutqning grammatik tuzilishi. Ot va sifatlarni son va kelishik qoʻshimchalari jihatidan, ot va sonlarni moslay oladilar, soʻzlarni shaxs-son jihatdan tuslay oladilar:

Tovushlarning talaffuz. Tovushlarni oʻzlashtirish jarayoni tugalanadi, nutq umuman olganda sof va aniq boʻladi, soʻzlarni tovushlar bilan toʻldirish, boyitish, qofiya tanishga qiziqish oratdi.

Fonematik idrok. Fonematik eshituv yetarli darajada yaxshi rivojlangan sim – shim, tor – tur kabi soʻzlarni ajrata oladi; topshirilgan tovushni soʻzda mavjud yoki yoʻqligini aniqlay oladilar; soʻzdagi oxirgi va birinchi tovshuni ajratib beradilar, maʼlum tovushga soʻz topa oladilar; nutqning tempi, tebr va ovoz balandligini farqlaydilar. Lekin, soʻzni yuqori darajada analiz va sintez qilish maxsus oʻqitishsiz rivojlanmaydi.

Bogʻlangan nutq. Tanish ertak, qisqa matn (shakl marta, oʻqib berilgan) ni gapirib bera oladilar, sheʼrlarni ifodali oʻqiydilar; rasm va syujetli rasmlar asosida hikoya tuza oladilar; koʻrgan va eshitganlari haqida toʻliq hikoya qilib bera oladilar; baxslashidilar, mulohaza yuritadilar, oʻz fikrlarini himoya qiladilar, doʻstlarini ishontiradilar.

Shartli etalonning asosiy vazifalari – tekshirish natijasida aniqlangan nutq holatini normadagi shartli etalon maʼlumotlari bilan solishtirish natijasida bolaning nuqsonli nutqi fazasini belgilash va unda til komponentlarining shakllanganlik darajasini baholash imkoniyati yaratiladi.

Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarni maxsus tekshirishlar shuni koʻrsatadiki, nutqi toʻliq rivojlanmagan turli xil klinik koʻrinishlarda vujudga keladi, buni uchta asosiy guruhga ajratiladi.

1-guruhdagi bolalarda nutqi toʻliq rivojlanmagan belgilarida faqat asab ruhiy faoliyatining buzilishlari kuzatiladi. Bunday bolalarda markaziy asab tizimining shikastlanishi kuzatilmaydi.

2-guruhdagi bolalarda nutqi toʻliq rivojlanmaganlik bir necha nevrologik va psixopatologik sindromlar bilan yuzaga keladi. Bu nutqi toʻliq rivojlanmaganlikning serebral organik genezisining ogʻir varianti boʻlib, bunda dizontogenetik-ensefalopatik simptoma-kompleksining buzilishi uchraydi. Ikkinchi guruhga mansub bolalar yaxshilab nevrologik tekshirilganda, nevrologik simptomatika faqat markaziy asab tizimi rivojlanishining orqada qolishi kuzatiladi. Nevrologik sindrom doirasida ikkinchi guruhdagi bolalarda quyidagilar kuzatiladi:

a) gipertenzion-gidrocefal sindrom – bosh miyaning ichki bosimi oshishi sindromida boshning kattalishishi, doʻng peshonalik, koʻz atrofidagi qovoqning kattalishishi kuzatiladi. Gipertenzion-gidrocefal sindrom birinchi navbatda aqliy ishlash faoliyatining buzilishidir. Ixtiyoriy faoliyat va bolalar xulqi, xis-hayajonning kuchayishi, harakatning toʻxtalishi namoyon boʻladi. Baʼzi bir paytlarda gidrocefalli va gipertenzion sindromlarda quyidagilar kuzatiladi. Eyforik fondi kayfiyatning koʻtarilishida jinniliklar qilishi, bunday bolalar issiqqa chidamsiz, bosh aylanishidan shikoyat qiladilar.

b) serebrastik sindromda asab ruhiy koʻrinishning boʻlishi, emosional kuchliligi, diqqat qismi qobiliyatining buzilishi kuzatiladi. Baʼzi bir vaqtlarda giper qoʻzgʻalishda namoyon boʻlishining, yaʼni hissiy va harakat xotirjamligi, tormozlanish kuzatiladi.

v) harakatlarning buzilish sindromi quyidagi harakaterga ega: muskul tonusining xolsizligi, harakat-tayanch koordinasiya harakati, qo'l-barmoqlar motorikasining differensiyasining etishmasligidir. Ko'pincha bunday bo'lganda artikulyasion motorikaning buzilishi, engil harakat, til muskulining ortiqcha harakatlanishi, dizartriyaning engil darajasi ko'rinadi. Bu guruhdagi bolalar umumiy motorikada qo'polliklar bilan ajralib turadi va ular bir harakatdan boshqasiga qiyinchilik bilan o'tadilar.

3-guruhdagi bolalarda ayniqsa nutqning rivojlanishdagi og'ir darajasidagi klinik belgilari motor alaliyaga o'xshaydi. Chet el adabiyotlarida ko'rsatilishicha, bu nutqning patologik formasi – affaziyaning paydo bo'lishi yoki (tabiiy afaziya) deb belgilangan. Masalan, alaliyadan og'ir dizontogenetik buzilish kuzatiladi.

Motor alaliyaning alomatlari barcha fonematik-leksik, sintaktik, morfologik tomonlaridan nutq faoliyatining hamma ko'rinishlarida, og'zaki va yozma shakllarida buzilishlar kuzatiladi.

Tashqi nutqning buzilishi, shuningdek bog'langan nutqni mustaqil talaffuz qilishning birdaniga pasayishi-motor alaliyali bolalarning xarakterli belgisidir. Dastlabki rivojlanishning bosqichida bolalar qisqa muddatli vaziyat ko'rinishi bilan bog'liq bo'lgan hodisa, harakat, xohishni aytib bera olmaydilar, shu yo'sinda u nutqiy muloqotda ishtirok etmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmaganlikning uchinchi darajasida bola o'zining alohida kuzatuvlari, mulohazalarini atrofda qilarga ko'proq tushunarli tarzda aytib bera oladi.

I -darajali bolalar uchun tovushlarga taqlid qilish kabi o'ziga xosdir (va xattoki u mavjud bo'lmasligi ham mumkin). Nutqli bolalarda faol lug'at so'zlar, tovushlarga taqlid qilish va umumqo'llaniluvchi so'zlardan tashkil topgan. So'zlar tuzilmasi buzilgan bo'ladi. Aktiv lug'atga qaraganda passiv lug'at kengroq bo'ladi. Jumlar bo'lmaydi. Grammatik jihatdan o'zaro bir-biri bilan bog'lanmagan alohida so'zlar bilan o'z xohish-istaklarini bildiradilar.

Korreksion ish lug'at boyligini kengaytirish, so'z tuzilmalarini rivojlantirish, jumalarni shakllantirish (ikki so'zdan iborat sodda gaplar) va shu bilan birga grammatik shakldagi tushunchalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratishni talab etadi.

II- darajadagi bolalar uchun agrammatik jumla tuzilishidagi buzilishlar xarakterlidir.

Aktiv lug'ati kambag'al, faqatgina ko'p ishlatiladigan so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Bolalar jumalarni ishlatmaydi. Ko'pgina qo'llaydigan so'zlari buzib ishlatiladi.

So'z ustida olib boriladigan ish lug'atni kengaytirish va faollashtirishdan boshlanadi. Bolalar so'zlarni o'zgarishi va so'z hosil bo'lishi bilan tanishadilar. Lug'ati antonimlar bilan boyitib boriladi. Ushbu bosqichda jumlaviy nutqini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi: gaplarni tuzilmasini rivojlantirish, uni grammatik va intonasion tomondan to'ldirish. Sodda ikki so'zdan tashkil topgan keng tarqalmagan gaplarga sekin-asta o'tiladi.

III- darajali bolalarda iborali nutqi deyarli to'liq shakllanmagan bo'ladi. Biroq, otlarni, kelishik qo'shimchalarni, ega-kesimlarni noto'g'ri qo'llash bilan birga agrammatizm elementlari mavjud bo'ladi.

Ushbu bosqichda ibora tuzilmasi va uning grammatik qurilishi ustida ish olib boriladi. Bog'langan nutqni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

Nutq to'liq rivojlanmagan bolalarni daslabki o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishga tayyorlashdir.

Tayyorlash ishlari bolada o'qishga qiziqish uyg'anish, o'z kuchiga ishonch xosil qilish, xar bir bolaning umumiy va nutqiy rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, og'zaki nutqini rivojlantirish, eshitish idrokini rivojlantirish, ko'rish idrokini o'stirish, mayda qo'l muskullarini xarakatchanligini oshirish kabilar bilan birga nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning psixologik jarayonlarini (xotira, diqqat, taffakur) ham rivojlantirish ustida ishlash ham tavsiya etiladi.

Kichik maktab yoshdagi bolalarni savod o'rganishga psixologik jixatdan tayyorlash bo'yicha olib boriladigan ishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Verbal tafakkur, analiz-sintez faoliyatini rivojlantirish;
- Xotira, diqqat va taffakurni rivojlantirish;

Verbal tafakkur va analiz-sintez jarayoni rivojlanganlik darajasi savod o'rganish jarayonida katta ahamiyatga ega.

Verbal tafakkurini rivojlantirish ishlari asosan frontal va individual mashg'ulotlar davomida tashkil etiladi. Bu asosan bolalar uchun og'zaki muloqat shaklida olib boriladi. Bu jarayonda bolaning nutqini xam rivojlantirib borish ko'zda tutiladi.

Bola qachonki buyumlarni nomini nomlasagina ularni diqqat bilan eshitasagina ularni yaxshi eslab qoladi. Psixologiyada qabul qilingan – “Bola o'zi ushlagan, ko'rgan, o'ynagan va uning uchun shodlik omili bo'lgan buyumlarni yaxshi qabul qiladi va eslab qoladi” nizomga asosan tavsiya etilayotgan metodik tavsiyamiz bolaning psixologik rivojlantirishda samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bilish faoliyatini rivojlantirish maktabgacha tarbiya, bilim muassasalari, psixologlari uchun odatiy va ko'proq ishlab chiqilgan ish yo'nalishi xisoblanadi. Bu faktning ob'ektiv sabablari mavjud: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani bilish jarayonida xotira va diqqatda tubdano'zgarishlar yuz beradi. Bu jarayonda ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanadi. Bu bola ongida esda olib qolish, ajratib olish ahamiyat berish kabi maqsad ajralib chiqib u ana shu maqsadga etishish uchun faol intilishga o'rganadi.

Xulosa. Bolalar nutqining to'liq va maromida rivojlanishi bosh miya po'stlog'idagi nutq markazlari faoliyati, eshitish va artikulyatsion apparatlarning yetukligi hamda ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Nutqning shakllanishi biologik omillar bilan cheklanib qolmasdan, kattalar bilan muloqot jarayonida takomillashadi. Fonematik idrokning yetarli rivojlanmaganligi nutqning fonetik-fonematik, leksik va grammatik tomonlarida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda kuzatiladigan klinik holatlar turlicha bo'lib, ular yengil funksional buzilishlardan tortib, markaziy asab tizimining organik zararlanishi bilan bog'liq og'ir shakllargacha namoyon bo'ladi. Shuning uchun bolalar nutqining rivojlanish qonuniyatlarini bilish, erta aniqlash va tizimli logopedik-pedagogik yordamni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Nutqiy va kognitiv jarayonlarni o'z vaqtida rivojlantirish bolalarning ijtimoiy moslashuvi, savod o'rganishi va keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Логопедия: учеб. пособие / под ред. А. С. Волковой. – Москва : ВЛАДОС, 2003. – 384 с.
2. Лалаева Р. И., Шаховская С. Н. Логопатофизиология : учеб. пособие для студентов вузов. – Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2013. – 464 с.
3. Ayupova M. Yu. Logopediya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2022. – 320 b.
4. Mo'minova L., Amirsaidova Sh. va boshq. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013. – 256 b.
5. Mo'minova L. R., Ayupova M. Yu. Logopediya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 77 b.